

SHUHRATNING "OLTIN ZANGLAMAS" ASARIDA NAZARDA TUTILGAN G'OYA VA QARASHLAR

G'ofurova Mexribonu Lochinbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti 1-bosqich talabasi

Xomidova Malohatoy Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shuhratning "Oltin zanglamas" asari haqida soʻz ketadi. Asarda ilgari surilgan gʻoya va qarashlar yoritib beriladi. Asar qahramonlarining ijobiy va salbiy xususiyatlariga toʻxtatilib oʻtiladi.

Kalit soʻzlar: Halollik, ikkiyuzlamachilik, urush, inson qadri, sevgi.

Abstract: This article is about Shuhrat's work "Gold Stainless". The ideas and views put forward in the work are highlighted. The work focuses on the positive and negative characteristics of the characters.

Key words: Honesty, hypocrisy, war, human dignity, love.

Аннотация: Данная статья посвящена произведению Шухрата «Золотая нержавеющая». Освещены идеи и взгляды, высказанные в работе. В произведении основное внимание уделяется положительным и отрицательным характеристикам персонажей.

Ключевые слова: Честность, лицемерие, война, человеческое достоинство, любовь.

Kirish qism: Shuhrat (asl ismi va familiyasi — Gʻulom Aminjonovich Alimov) (1918-yil 19-aprelda Toshkentda tavallud topgan) — oʻzbek va sovet yozuvchisi, shoiri, dramaturg va tarjimon . Oʻzbekiston xalq yozuvchisi (1983). Oʻzbekiston SSRda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi (1978).

Shoir sifatida ilk debyutini 1936-yilda "Mehrol" she'riy toʻplami bilan boshlagan. Shuningdek Shuhrat Oila“ , „Rustam“ , „Bir kechaning fojiasi“ , „Odamdan odamga“ . „Shinelli yillar“ , „Oltin zanglamas“ , „Jannat qidirganlar“ romanlari muallifi. Shuhrat asarlarining oʻziga xosligi shundaki asarning har bir soʻzi yurakning tub-tubiga yetib boradi, yurak jon tomirlarini asta qitiqlaydi. Hattoki bagʻritosh insonlarning ham qalblarini ilitishga qodir. Hozir shu romanlardan biri "Oltin zanglamas" asari haqida gap boradi.

"Men bu hayotning atrofida emas naq ichida boʻlgandan" Shuhrat

Asosiy qism: Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Shuhratning "Oltin zanglamas" romani 1963-1965-yillarda yozilgan . Ilk marotaba 1967-yilda nashr etilgan. Oltin Zanglamas romanida urushdan oldingi va keyingi davrda mudhish qatagʻonlarga mahkum boʻlgan halol-pokdamon, iymon-eʼtiqodli insonlarning ayanchli qismati badiiy

tasvirlangan. "Oltin zanglamas" asarini to'laqonli anglash uchun Sho'ro davrini yanada yaxshiroq bilish kerak. Roman adibning quyidagi so'zlari bilan boshlanadi: „Mehribon onam, sevikli muallimim, qadr don do'stim, aziz farzandlarimga bag'ishlayman“.

Asarda eng oliy kasblardan biri o'qituvchilik kasbi haqida gap ketadi. Asar qahramoni Sodiqjon juda ham vijdonli, rostgo'y inson sifatida tasvirlanadi. Qilgan sa'y-harakatlari natijasida direktorlik maqomiga erishadi. Ammo unga xavas qilgan oq ko'ngillar borligidek, yuziga kulib ortidan xasad qiladiganlar ham anchagina edi. Bularning biri ayyor Mirsalim bo'lsa yana biri ahloqi buzuk Shukurov edi.

Asar Sodiqning ukasi Qodirning bir go'zal qizni uchratib qolishi qizning tabassumini janon piyola tovushiga o'xshatish tasviri bilan boshlanadi. Ana o'sha kundan boshlab yigitchaning qalbida sevgi uchqunlari alanga ola boshlaydi. Lekin maftunkor Aziza Mirsalimning qizi bo'lib chiqadi. Asar davomida ko'ramizki Aziza otasining qabih ishlaridan bor qalbi bilan nafratlanadi va voqealar rivojida hattoki otasidan ham kechib uydan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Asarda barchani qalbiga chuqur kirib borgan yana bir qahramon munis ona Adolat ayadir (ya'ni jon bolam xola). Adolat aya barchani o'z farzandidek ko'rib jon bolam deb murojaat qilgani uchun barcha uni jon bolam xola deb ataydi. Adolat aya qanchalar sodda va yuksak qalb egasi ekanligini asar davomida ko'rishimiz mumkin. Sodiqning ayoli -Jannat . O'z nomi bilan Jannati ayol , Adolat ayani o'z onasi deb biladi, o'zini oilasi uchun baxshida etgan chinakam o'zbek kelini. Ammo bir kam dunyo deganlariday Hudo uni onalik baxtiga musharraf etmadi. Sodiqjon ham Jannat ham bundan qanchalar dillari xufton bo'lsa ham ikkisi bir-biriga bildirmaslikka urinishlar edi. Asarda ikkiyuzlamachi Sodiqqa o'zini xuddi do'stdek ko'rsatgan Mirsalim Sodiqning ustidan yolg'on bo'xtonlar yozadi. Ya'ni Sodiq bir gal bolalarga Qaldirg'och Ka'badan keladi deb aytgan gapini Mirsalim bolalar o'rtasida dinni yashirin tashviqot o'tkazmoqda deb o'z arizasida bayon qiladi. Albatta Mirsalim yolg'iz emasdi, Shukurov va maktabdan aravada ko'mir o'g'irlab qo'lga tushgan xo'jalik xodimi ham sherik bo'lgandi. Va ular o'z qabih niyyatlariga erishadilar. Shu kundan so'ng Sodiqning oilasi uchun og'ir kunlar boshlanadi va kim aslida qanday ekanligi namoyon bo'ladi. Lagerda paytida Sodiqjon urush maydonida bo'ladi va qahramonlarcha vafot etadi. Adolat aya esa Sodiqjonning nomi oqlanmaguncha hayotdan ko'z yummay yashaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak asarda chin insoniy fazilatlar ochib berilgan va ulug'langan. Asarda har qanday holatda ham yurtini sevgan , o'z vatani uchun tinmay harakat qilgan Sodiqjon qahramoni gavalansa, sotqinlik, ikkiyuzlamachilik va qabih ishlar botqog'iga tushib qolgan o'z foydasi yo'lida vatanini sotishga tayyor turgan Mirsalim obrazi uchraydi. Tabiiyki bu asarni o'qigan inson o'ziga yetarlicha xulosa chiqaradi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Shuhrat (2018) Oltin zanglamas-T:Yangi asr avlodi

7-sinf adabiyoti qayta ishlangan 4-nashri . /Q.Yo‘ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov,
J. Yo‘ldoshbekov. -T. : "Sharq", 2017.

Net. Tarmoqlari:www.ziyouz.com kutubxonasi